

BO‘YIMODARON (ACHILLEA MILLEFOLIUM L.) O‘SIMLIGINING YETISHTIRILISHI VA TARQALISHI

Yalgasheva Baxtigul Safarovna

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institute

Annotatsiya. Bo‘yimadaron (*Achillea millefolium* L.) dunyodagi eng ko‘p qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklardan biri bo‘lib, birinchi navbatda yaralar, ovqat hazm qilish muammolari, nafas olish yo‘llari infeksiyalari va teri kasalliklarida ishlatiladi. O‘zbekistonda Bo‘yimadaron turkumining 5 turi uchraydi. Bo‘yimadaron adir va qirlar, yo‘l yoqalari va o‘rmon chekkalarida o‘sadi. Tarkibida karotin, K va S vitamin, achchiq moddalar bor. Ekstrakti va damlamasi me‘daichak yarasi kasalliklarini davolash, ishtaha ochish hamda qon to‘xtatish uchun ishlatiladi.

Kalit so‘zlari: *Achillea millefolium*, bo‘ymodaron, gulpoya, meva, tarqalishi, DNK.

Oddiy bo‘ymodaron (*Achillea millefolium*) Shimoliy yarim sharning Osiyo va Yevropa va Shimoliy Amerikadagi mo‘tadil iqlimli hududlari va O‘zbekistonning cho‘l va tog‘li hududlarida keng tarqalgan. Balandligi 0,2-1 m va bir tekisda o‘sadigan ko‘p yillik o‘simlik. Barglari poyasi bo‘ylab bir tekisda ketma-ket taqsimlanib ikki karra patsimon tuzilgan bo‘lib, uzunligi 5-20 sm deyarli tukli va tarkibida kaulin bo‘lib, yopishish xususiyatiga ega. Gullari poyaning yuqori qismida katta, ixcham qalqonsimon to‘pgulda joylashgan, har bir to‘plam 1 yoki undan ortiq gul boshlaridan iborat. Gulpoyada 20-25 sarg‘ish-oq (kamdan-kam pushti) nurli gullarga ega. Mevasi yassi, tuxumsimon, kulrang pistameva.

Bo‘ymadaronning xalq va rasmiy tibbiyotda keng qo‘llanilishi o‘simlik tarkibidagi turli xil biologik faol moddalar majmuasi bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtda oddiy bo‘ymadaronning kimyoviy tarkibi juda yaxshi o‘rganilgan. Bo‘ymadaron tarkibida azulen, tujol, sineol, kofur, karyofilin, chumoli, valerik kislota o‘z ichiga olgan ko‘p miqdorda efir moyi mavjud. Maysalarida qatronlar, taninlar, fitonsidlar, axilein alkaloidi, akonitik va askorbin kislotalar, K, P, B₁ vitaminlari bor. O‘simlik tarkibida flavanoidlar mavjud, ular orasida artemetin. Dorivor xom ashyo tarkibida ko‘plab mikro va makro elementlar mavjud: K, Ca, B, Mg, Si, Cl, Co.





ACHILLEA MILLEFOLIUM L.

Tehron olimlari (M. Akbari, M. Farajpour, M. Ebrohimi) tomonidan bo'yimadaron o'simligining genomikasini o'rganishgan. Ya'ni Ribosomal DNK genlari takrorlanuvchi birliklarning klasterlarida tashkil etilgan bo'lib, ularning har biri kodlash mintaqalaridan iborat. Bitta va ikkita ichki transkripsiyalangan ajratgichlar (ITS), intergenik spacer (IGS) hududiga qo'shimcha ravishda. Shunga ko'ra, Asteraceae oilasining to'rtta yovvoyi va endemik turlari orasida ITS va IGS mintaqalarining ko'p DNK ketma-ketligini aniqlashga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ITS va IGS ketma-ketliklari uchun yakuniy ma'lumotlar to'plamida mos ravishda jami 754 va 667 pozitsiya mavjud. IGS hududlari nukleotidlar xilma-xilligi darajasi ($T=0,60$), o'tish 3% tion/transversiya tezligi nisbatlarining taxminiy qiymatlari ($kl = 38,28, 12,58$, pirimidinlar) va purinlar kabi bir qancha parametrlar bo'yicha ITS mintaqasidan ustun edi. Bu IGS belgilari bo'yicha Asteraceae germplazmasida transversiyadan ko'ra 3% o'tishlari dominant ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, IGS hududi ko'proq bo'lishi mumkin degan xulosaga keldi. Asteraceae turlari turli kenja turlarida genetik munosabatlarni o'lchash uchun mos keladi, ITS ketma-ketliklariga qaraganda ko'proq ma'lumotga ega. Umuman olganda, ribosomal DNK, ayniqsa rDNK klasterining intergenik ajratuvchisi tez rivojlanadi va yuqori polimorfik bo'lib, genetikni baholash uchun foydali vositadir.

Respublikamizda Oddiy bo'yimadaron o'simliklarini Markaziy Osiyo iqlim sharoitiga moslashtirish, yangi navlarni yetishtirish, ularni qayta ishlash



yuzasidan muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Oddiy bo‘ymadaron o‘simligining maysalari yer yuziga chiqqanidan so‘ng dastlabki 4-5 haftada begona o‘tlarni yo‘qotish, qator oralarini yumshatish va yagana qilish ishlariga qaratildi. O‘simliklarni bo‘yi 12-15 sm ga yetganida esa qator oralarini ishlash bilan birga ularning rivojlanishini tezlashtirish maqsadida gektar hisobiga 30 kg dan azot va 15 kg dan kaliy o‘g‘iti berilib, 4-8 sm chuqurlikda kultivatsiya ishlari o‘tkazildi. Ikkinchi oziqlantirish o‘simlikning bo‘yi 20-30 sm ga yetganda gektariga 25 kg dan azotli va fosforli o‘g‘itlar bilan oziqlantirildi. O‘simlikni oziqlantirish albatta sug‘orishdan oldin amalga oshirildi. O‘simlik oziqlantirilgandan va sug‘orilgandan keyin uning o‘sishi va rivojlanishi tezlashdi. Oxirgi oziqlantirishni uning bo‘yi 40-45 sm ga yetganda azotli va kaliyli o‘g‘itlar berish bilan tugallandi. Mavsum davomida oddiy bo‘ymadaronni 8-9 marta sug‘oriladi va gektariga 75-90 kg azot, 60 kg fosfor, 35 kg kaliy va yer haydash oldidan 25 tonna go‘ng bilan oziqlantirildi. Iyul oyigacha oddiy bo‘ymadaron o‘simligini 2-3 marta o‘rib olindi. Bu esa iyul oyining oxiriga kelib ildiz tizimidan yangi o‘t o‘sib chiqishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. [San Marcos Growers horticulture – The Yarrow Lawn](#). Accessed 31 January 2013.
2. Bert Wilson (29 July 2012). "[Las Pilitas Nursery horticultural treatment: *Achillea millefolium* var. *californica*](#)". Laspilitas.com. Retrieved 19 May 2013.
3. Karamenderes, C. ve Kesercioğlu, T. (2002). *Türkiye’de Yayılış Gösteren Achillea L. cinsine Ait Bazı Taksonların Kromozom Sayıları*, 14.BİHAT, 29-31 Mayıs, Eskişehir, poster, A13.
4. Shernazarov, S. S., & Tashpulatov, Y. S. (2020). Species Composition of Algae in the Food Tract of Common Silver Carp (*Hypophthalmichthys molitrix* vab.) in Growing Conditions.
5. Nasimova, Z. H., Sh, T. Y., & Mukumov, I. U. (2023). METHODS FOR INITIAL PROPAGATION OF SPECIES AND VARIETIES OF ORNAMENTAL LILY (*LILIUM* L.). *Студенческая наука в 2023 году*.
6. Huo C., Li Y., Zhang M., Wang Y., et al. Cytotoxic Flavonoids From The Flowers Of *Achillea millefolium* L. *Chemistry of Natural Compounds.*, 2013. 48(6).

7. Yoqubov, M., Mahammadiyev, J., & Eshonqulova, A. (2023). SABZI VA OLMADAN TAYYORLANGAN MAHSULOTLARNING TARKIBINI O‘RGANISH. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 872-876.

8. Bobokandov, N., & Nomozova, Z. (2023). CHANGE IN THE NUMBER OF PLANT BUSHES THROUGH THE GRAZING GRADIENT OF SOUTHERN KYZYLKUM. *Science and innovation in the education system*, 2(4), 123-129.

9. Christenhusz M.J.M., Fay M.F., Chase M.W., *Plants of The World*. Chicago: University of Chicago Press; 2017. 602-603.

10. Boboqandov, N. F. (2023). DOMINANT O‘SIMLIK TURLARIDA TURLI FASLLARDA VA TURLI YAYLOV INTENSIVLIGIDA PROEKTIV QOPLAM KO‘RSATKICHLARINING O‘ZGARISHI (JANUBIY QIZILQUM). *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 877-882.

11. Mahammadiyev, J., Yoqubov, M., & Nurmanova, I. (2023). ZARARKUNANDALAR VA HASHAROTLARGA QARSHI KURASHUVCHI VOSITALARNING MIKROKAPSULLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 1201-1205.

12. https://www.researchgate.net/publication/305083169_ASSESSMENT_OF_GENETIC_DIVERSITY_IN_SOME_WILD_PLANTS_OF_ASTERACEAE_FAMILY_BY_RIBOSOMAL_DNA_SEQUENCE.

Research Science and Innovation House